O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2024 - yil 5 - yanvar VI-91-1-12-218-K/24 Tuproqqal’a tumani hokimligi

Tuproqqal’a tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024 yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 10-noyabrdagi 19/14-112244-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 5-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 10-noyabrdagi 19/14-112244-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 5-dekabrdagi qo‘shma xatlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mahallalar iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2024-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1, 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, yer solig‘ining amaldagi stavkalari 1,13 baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari keyingi yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda,

kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Xalq deputatlari Tuproqqal’a tumanI Kengashining 2023-yil 9-yanvardagi VI-68-2-12-218-K/23-sonli qarori 2024-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Sultanov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetini shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Qalandarovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Jimalyazov**

Xalq deputatlari Tuproqqal’a tuman
Kengashining
2024-yil 5-yanvardagi
VI-91-1-12-218-K/24-son qaroriga
1-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdorga 1 gektarga** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun 1 (bir) gektar uchun so‘mda
1	Nukus maskani MFY	0,81	24 494 400
2	Sarimoy MFY	0,81	24 494 400
3	Tuproqqal‘a maskani MFY	0,81	24 494 400
4	Hazorasp MFY	0,81	24 494 400
5	Yo‘ldosh Oxunboboev MFY	0,98	29 635 200
6	Nurobod MFY	0,98	29 635 200
7	Obod MFY	0,98	29 635 200
8	Pastom MFY	0,98	29 635 200
9	Saidlar MFY	0,98	29 635 200
10	Sayapir MFY	0,98	29 635 200
11	Shayxlar MFY	0,98	29 635 200
12	Yakka chiqir MFY	0,98	29 635 200
13	Yangi zamin MFY	0,98	29 635 200
14	Yoshlik MFY	1,15	34 776 000
15	Muxabbat MFY	1,15	34 776 000
16	Navbaxor MFY	1,15	34 776 000
17	Saxovat MFY	1,15	34 776 000
18	Sharlauk MFY	1,15	34 776 000

Xalq deputatlari Tuproqqal’a tuman
Kengashining
2024-yil 5-yanvardagi
VI-91-1-12-218-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun 1 (bir) kv.m uchun so‘mda
1	Nukus maskani MFY	0,81	189,22
2	Sarimoy MFY	0,81	189,22
3	Tuproqqal‘a maskani MFY	0,81	189,22
4	Hazorasp MFY	0,81	189,22
5	Yo‘ldosh Oxunboboev MFY	1,09	254,62
6	Nurobod MFY	1,09	254,62
7	Obod MFY	1,09	254,62
8	Pastom MFY	1,09	254,62
9	Saidlar MFY	1,09	254,62
10	Sayapir MFY	1,09	254,62
11	Shayxlar MFY	1,09	254,62
12	Yakka chiqir MFY	1,09	254,62
13	Yangi zamin MFY	1,09	254,62
14	Yoshlik MFY	1,16	270,98
15	Muxabbat MFY	1,16	270,98
16	Navbaxor MFY	1,16	270,98
17	Saxovat MFY	1,16	270,98
18	Sharlauq MFY	1,16	270,98